

**INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA NISBAT KATEGORIYALARINING
MUQOYASASI**

Termiz davlat universiteti

Xorijiy filologiya fakulteti

1-bosqich talabasi 124-guruh talabasi

Abdurahmonova Sarvinoz

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ingliz va o'zbek grammatikasida muhim o'rin egallagan fe'l nisbatlari mavzusida so'z boradi. Chunonchi, har ikkala til morfologiyasidagi ayricha va muvofiq xususiyatlar o'zaro qiyoslanadi.*

Abstract: *This article discusses the topic of verb conjugation, which plays an important role in English and Uzbek grammar. In particular, it compares the distinctive and compatible features in the morphology of both languages.*

Kalit so'zlar: *Grammatika, nisbat, tahlil, morfologiya, affiks, subyekt.*

Keywords: *Grammar, ratio, analysis, morphology, affix, subject.*

Axborotlashib borayotgan yangi texnologiyalar asrimizda ham, hattoki, tilga bo'lgan e'tibor yanada baland pog'onalarga ko'tarilmoqda. Hammamizga ma'lumki, ko'plab onlayn ilovalar, dasturlar va veb-sahifalarni ing tili bevosita hozirgi kunda jahon tili hisoblanmish ingliz tili bilan uzviy bog'liqdir. Shuning uchun ham bugungi kunda ingliz tilida bimalol suhbat qura oladigan insonlar ko'pchilikni tashkil qiladi. Jumladan, ona-Vatanimiz O'zbekistonning 2024-yil statistik ma'lumotlariga qaraganda, 52706 nafar shaxs IELTS imtihonidan qator sertifikatlarni qo'lga kiritgan. Avvolombor, IELTS - International English Language Testing System, ya'ni xalqaro miqyosda tan olingan, insonlarning ingliz tilini bilish darajasini, salohiyatini hamda muloqot qila olish mahoratini baholaydigan tizim hisoblanadi. Shuningdek,

IELTS tizim ham yagona emas. Til bilish sertifikatlarining ham turlari ko'p. Misol uchun, CEFR, MULTILEVEL, TOEFL, Linguaskill, DUOLINGO kabilar. Qisqa qilib aytganda, yurtimizda tilga bo'lgan talab va uning rivojlanishi uchun kerak



bo'lgan e'tibor yetarlicha darajada. Binobarin, til o'rganish jarayoni o'ziga yarasha qiyinchiliklarga ega. Biroq bu jarayonni ma'lum darajada osonlashtirish mumkin. Mutaxassislarning fikricha, inson o'z ona tilini puxta o'zlashtirsa, chet tillarini o'z tili bilan solishtirib, tez va oson o'rganar ekan. Biz ham quyida o'zbek va ingliz tili grammatikasida mavjud nisbat kategoriyasini muqoyasa qilib, o'xshash va farqli jihatlarini ko'rib chiqamiz.

Nisbat kategoriyasi- harakatning subyekt va obyektga bo'lgan munosabatini ko'rsatadi. Bu munosabat maxsus fe'l formalari orqali ifodalanadi. Masalan, kiydi leksemasida subyekt aniq, kiyindi so'zida subyekt harakat-holat jarayonini o'zi ustida amalga oshirgan, kiyildi fe'lida bajaruvchi noaniq, kiydirdi fe'lida bajaruvchi ish-harakatni o'zga shaxsga bajartirgan, kiyishdi fe'lida esa bajaruvchilar miqdori ko'p. Bundan ko'rinib turibdiki, o'zbek tilida fe'l nisbatlarining 5 ta shakli mavjud: 1) aniq 2) o'zlik 3) majhul 4) orttirma 5) birgalik.

What is voice of a verb? The voice of a verb expresses whether the subject in the sentence has performed or received the action. In English grammar, there are 2 types of voices: 1) Active voice 2) Passive voice.

ACTIVE VOICE- when an action performed by the subject is expressed by the verb, it is an active voice. Aniq nisbat- harakatning ega bilan ifodalangan shaxs yoki predmet tomonidan bajarilishini bildiradi. Bu turdagi darajaning maxsus ko'rsatkichi yo'q.¹ Example: Alisa read an interesting book yesterday.

Alisa kecha qiziqarli kitob o'qidi. Ushbu gapimizda Alisa- subject, ya'ni gapning egasi va ish-harakatning bajaruvchisi. Ikkala gapimizda ham bajaruvchi shaxs- Alisa aniq bo'lganligi sababli quyidagi xulosaga kelamiz:

Active voice=Aniq nisbat.

PASSIVE VOICE- when the action expressed by the verb is received by the subject, it is passive voice. Passive voice is used when the subject of the action is not known and the focus of the sentence is on the action and not the subject.²

¹ "O'zbek tili grammatikasi" 1-tom. Morfologiya. O'zbekiston SSR "Fan". Toshkent 1975.445-b

² "Destination B2". Malcolm Mann, Steve Taylore-Knowles. "Macmillan" 2013.



Majhul nisbat -subyekti noma'lum bo'lgan ish-harakatni ifodalovchi fe'l shakllari.

Majhul nisbatda ish-harakatning bajaruvchisi noma'lum bo'ladi. Har ikkala tilda ham majhul nisbatdagi fe'l -(i)n, -(i)l degan shakllarga ega bo'ladi. Masalan: yuvildi, tozalandi kabi. Ingliz tilida majhul nisbat odatda aniq nisbatdagi gapning to'ldiruvchisini gap boshiga chiqarib, undan keyin to be+Verb+ed/3 ning zamonga mos shaklini qo'llash yo'li orqali yasaladi. Example:

In spring, beautiful flowers are planted. --- Bahor faslida chiroyli gullar ekiladi.

Ingliz tilida 16 ta zamonning faqat 10 tasi majhul nisbatda kela oladi. Quyidagi jadvalda majhul nisbatda kela oladigan zamon shakllari va ularning formulalari keltirilgan:

VOICE	TENSES	ACTIVE VOICE	PASSIVE
	Present Simple	S + V(s, -es) + object	S + am/is/are + Ved3
	Present Continuous	S + am/is/are + V-ing	S + am/is/are + being + Ved3
	Present Perfect	S + have/has + Ved3	S + have/has + been + Ved3
	Past Simple	S + Ved2	S + was/were + Ved3
	Past Continuous	S + was/were + V-ing	S + was/were + being + Ved3
	Past Perfect	S + had + Ved3	S + had + been + Ved3
	Future Simple	S + will/shall + V	S + will/shall + be + Ved3
	Future Perfect	S + will/shall + have + Ved3	S + will/shall + have + been



Tug'ilgan kun torti onam tomonidan tayyorlangan edi.

-sat: ko'rsat, **-iz:** tomiz, **-ir:** o'chir, **-ar:** qaytara va hokazo.

HAVE/GET/MAKE+something+ Verb+ed/3

MAKE Verb

Yuqorida berilganlardan ingliz va o'zbek tilida o'xshash jihatlarga ega, o'zaro bir-biriga mos tushadigan nisbat kategoriyalarini ko'rib chiqdik. Ammo o'zaro farqli o'laroq, ingliz tili grammatikasida mavjud bo'lmagan, o'zbek tilida esa o'z



grammatik va morfologik xususiyatlarga ega bo'lgan o'zlik va birgalik nisbat kategoriyalari ham mavjud.

O'ZLIK NISBATI - fe'lga -(i)n, -(i)l qo'shimchalarini qo'shish orqali hosil qilinadi va bajaruvchining o'zi ustida amalga oshiriladigan harakat-holatni ifodalaydi. Masalan: Tunda osmonda oy ko'rindi. Binobarin, o'zbek tili morfologiyasida o'ziga xos shunday xususiyat borki, o'zlik va majhul nisbatning grammatik vositalari bir xil. Ularni farqlash uchun gapning leksik tomoniga alohida e'tibor qaratish kerak. 1) O'zlik nisbatidagi fe'lni aniqlash uchun uning yonidan o'zi leksemasini qo'yib ko'ramiz: Bahorda anvoyi gullar (o'zi) ochiladi.

Uylarning tomlari yashil rangga (o'zi) bo'yaldi.

2) Majhul nisbatdagi fe'lni aniqlash uchun esa tomonidan ko'makchisini qo'yib ko'ramiz: Atlas matodan chiroyli ko'ylak (tikuvchi tomonidan) tikildi.

Kuz kelishi bilan daraxtlarning bargi to'kildi.(tomonidan)

BIRGALIK NISBATI- -(i)sh affiksi yordamida yasaladi va harakatning birdan ortiq shaxs tomonidan bajarilishini bildiradi: yozishdi, sug'orishdi kabi.

Bu daraja formasining "birgalik" deb atalishi ham harakatning bajarilishida birdan ortiq shaxsning ishtirok etishi, birga bajarish ma'nosini ifodalashiga ko'radir. Bunda quyidagi holatlarni ko'rish mumkin:

- Birga bajarish, harakatni bajarishda birga ishtirok etishni bildiradi: O'quvchilar mustaqil topshiriqni birgalikda topshirishdi.

- Boshqa bir shaxsning harakatiga yordam tarzidagi harakat ekanini bildiradi: Opam menga idish-tovoqlarni tashishdi.

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi tahlillardan ko'rinib turibdiki, har ikki tilda grammatik va morfologik jihatdan o'xshashlik va nomuvofiqliklar talaygina ekan. Bu ikki tilni solishtirishimizdan asosiy maqsad esa yoshlar uchun xorijiy tillarni oson va tez o'rganish yo'llarini aniqlashdir. Zero, "Til bilgan-el biladi",-deganlaridek, yosh avlod faqat o'z ona tilisi bilan chegaralanib qolmasdan, balki o'zga tillarni ham puxta o'zlashtirmog'i lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Step by step". Sh. Toshpo'latov. "Regbooks" Toshkent 2020.



2. “Destination B2”. Malcolm Mann, Steve Taylore-Knowles. “Macmillan” 2013.
3. “O’zbek tili grammatikasi” 1-tom. Morfologiya. O’zbekiston SSR “Fan”. Toshkent 1975.
4. “O’zbek tili morfologiyasi”. A. Hojiyev. O’zb. Res. Fanlar Akademiyasi “Fan”. Toshkent 2010.